

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

MAY, 2026-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

ISBN 978-9910-8337-6-2

**O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI.** I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Мадаминов Рахматилло

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД ДЛЯ БАКТЕРИЙ И ГРИБОВ 5-7

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI8-12

IQTISODIYOT FANLARI

Mirzayev Shoxrux

KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR 13-15

Aliqulov Abbos

ARALASH MA'LUMOTLAR ASOSIDA REGRESSIYA MODELLARINI BAHOLASHDAGI YASHIRIN SEGMENTLAR MUAMMOSI 16-22

FALSAFA FANLARI

Boyxonov Umidjon

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI USTUVORLIGI KONSEPSIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 23-28

FILOLOGIYA FANLARI

Isomidinova Zilola

RAQAMLI OAVDA MUALLIFLIK HUQUQI MUAMMOLARI 29-31

Raximjoniva Nozima

ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA TURIZM KONTENTINING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 32-35

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI 36-39

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

ИНСТИТУТ НЕДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОБОСНОВАНИЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И ОБОСОБЛЕННОСТИ ОТ ДРУГИХ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ 40-43

Хайдарова Хилола

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 44-48

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI 49-54

PEDAGOGIKA FANLARI

Nizomova Bashoratxon, Mirazamova Mahliyo

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA
TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 55-58

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
MEXANIZMNI ISHLAB CHIQISH 59-61

Adamatov Anvar

KOREYA TA'LIM TIZIMIDAGI PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING GLOBAL TA'LIM
KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI 62-65

SIYOSIY FANLAR

Xolmatov Saidbek

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING
GEOSIYOSIY AHAMIYATI 66-69

TARIX FANLARI

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI

Qirg'izov Baxtiyor Xudoberdiyevich

Oriental universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida 1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Email: baxtiyorbekxudoberdi@gmail.com

Tel: (91) 691 27 77

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatidagi ziyoratgohlarni ayrimlarining tarixi va ular bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Mazkur maqolada Farg'ona viloyati hududida joylashgan aziz avliyolar, tasavvufga oid ziyoratgohlarning vujudga kelish tarixi hamda ularning mintaqa ma'naviy hayotidagi o'rni ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, ushbu muqaddas qadamjolarning ziyorat turizmini rivojlantirishdagi roli hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri baholanadi. Muallif Farg'ona viloyatidagi ziyoratgohlarni muhofaza qilish, ilmiy jihatdan o'rganish va ularni zamonaviy turizm infratuzilmasiga integratsiya etish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalari ziyorat turizmini kompleks va barqaror rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, aziz avliyolar, tasavvuf, ziyoratgohlar, ziyorat turizmi, madaniy-ma'naviy meros.

FUNERARY PRACTICES OF THE CHIRIKRABAT CULTURE WITHIN INDO-IRANIAN RELIGIOUS TRADITIONS

Qirgizov Baxtiyor Xudoberdiyevich

1st-year independent researcher at the Department of Social and Humanitarian Sciences, Oriental University

Annotation. This article analyzes the history of some of the shrines in the Fergana region and the problems associated with them. This article provides a scientific analysis of the history of sacred saints and Sufi shrines located in the Fergana region, as well as their role in the spiritual life of the region. The role of these sacred sites in the development of pilgrimage tourism and their impact on regional socio-economic development will also be assessed. The author pays special attention to the protection of shrines in the Fergana region, their scientific study, and their integration into modern tourism infrastructure. The research results scientifically substantiate the need for the comprehensive and sustainable development of pilgrimage tourism.

Key words: Fergana region, sacred shrines, Sufism, pilgrimage sites, pilgrimage tourism, spiritual heritage.

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida to'rt yuzdan ziyod ulamolar, aziz avliyolar, mutafakkirlar va boshqa ulug'larimiz nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar mavjud. Shulardan ikki yuzga yaqiniga ziyoratchilar boradi va milliy va diniy marosimlar o'tkaziladi[4]. Ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarini turli xil tashkilotlar, ayniqsa, vakolatli bo'lmagan, o'z nizomlarida ziyoratgohlardan foydalanish va ziyoratlarni tashkil etish, diniy marosimlarni uyushtirish nazarda tutilmagan tashkilotlar tomonidan foydalanilishi ularni boshqarish, foydalanish, yong'in, texnika va jamoat xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, sanitariya va gigiyena qodalar talablari, arxitektura-shaharsozlik, soliq ma'murligi, moddiy tushumlar, saqlash-muhofazalash, diniy rasm rusmlar o'tkazish, ijtimoiy ma'naviy muhit va bu maskanlardagi boshqa muhim omillarning nazorati va yagona ma'lumotlar bazasini ta'minlashda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda[4].

Bu muborak maskanlarning aksariyatida infratuzilma va xizmatlar darajasi talab darajasida emas. Masalan, ziyoratgohlar atrofida zamonaviy savdo-sotiq maskanlari, ma'lumot beruvchi axborot markazlari, sayyohlar uchun yengil transport xizmatlari yo'qligi tufayli tashrif buyuruvchilarda noqulayliklar yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, mahalliy yo'llarning sifatsizligi, tibbiyot xizmatlarining yo'qligi va xavfsizlik choralari yetarli darajada emasligi ham bu hududlarning turistik salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Eng asosiysi esa juda ko'plab ziyoratgohlarni tarixi ilmiy asoslangan holada manbalar va og'zaki tarix asosida o'ganilmagan. Shu tufayli mazkur ob'ektlarning tarixini, tiklash-ta'mirlash jarayonlarini bilgan keksa avlod ham olamdan o'tib ketishi natijasida ma'lumotlar va axborotchilar bo'shlig'i yuzaga kelmoqda. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki ziyorat turizmini tash etish yuzasidan diniy-dunyoviy bilim va ko'nukmalarga ega kadrlar talab etilmoqda. Turoperatorlar bu borada hech bo'maganda ichki ziyorat turizmida mavjud gidlarning malakasini oshirishi lozim deb hisoblaymiz.

Abdullatif Mavlaviy Jabaliy ziyoratgohi. Xoja Abdullatif Jabaliyning tavallud vaqti va joyi aniq emas. Tazkirai Qayyumiyda bu kishining "Shoh Ahmad Qodir Siyomiy Sirxandiy" degan nomlari ham bo'lganligi eslatib o'tilsa-da, bizda yuqoridagi nom mashhur. Hindiston madrasalarida tahsil olib, ilmi mantiq bilan bo'yicha alloma bo'lib yetishadilar hamda tabobatni o'rganadilar. So'ngra mashhur tariqat shayxlaridan Sayyid Abdullo Bag'dodiy qo'llarida tariqat ta'limini oladilar. Yuqori darajaga erishgach, irshod olib Badaxshon orqali vodiya keladilar. Burbonlik, Kaptarxona, Log'on tomonlarda biroz yashab, Xo'qandga kelib muttavin bo'ladilar. Shayxoni Bolo (xozir Tursunobod) mahallasidagi hovli, bog', xonaqoh qilib, murid tarbiyalash, tabobat bilan shug'ullanadilar[2; 34-b.]. Muhammad Alixon davrida katta obro' - e'tiborga sazovor bo'ladilar. Tabobat borasida bilibmi - bilmaymi, Xalifa Safoxon to'raning hayotlariga zomin bo'ladilar: Xudoyorxon hukmdorligining birinchi davrida qipchoqlardan bo'lmish Yormuhammad mingboshi bir ziyofatdan bo'kib chiqib yo'l-yo'lakay Safoxon to'rani ziyorat qiladi. O'zbekchilik deganday, Safoxon to'ra mehmonga osh-suv qiladilar. Mingboshi uyiga borganda sog'lig'i yomonlashadi, qayd qiladi. Uning odamlari Xoja Jabaliy olib keladilar. Jabaliy "zaxarlangansiz", deb tashxis qo'yadilar. Mingboshi Xalifa Safoxon to'radan gumon qilib, u kishini o'ldirtirib yuboradi. Shayx Jabaliy katta yer-mulkka ega bo'ladilar. Ellik tanoblik yerga har yili jo'xori ektirib, donini dala-bog'larga qushlar uchun septiradilar. Yana boshqa xayriyat ishlari ko'p bo'lgan. Taxminan 1850 yillarda vafot etganlar. O'g'il farzandlari bo'lmay Bibi Hanifa degan birgina qizlari bo'lgan. Bibi Hanifadan mashxur allomalar Muhammad Xoja A'lam hamda Sa'diddin qozi tavallud topganlar. Daxmalari Shayxon qabristonida, hozirgi shoirlar xiyoboni oldida. Mavlono Muqimiy o'zlarini Jabaliy dahmasiga qo'yishni so'rganlarida, nabiralari Sa'dixon qozi rad etganlar. Ammo, go'rkov shoirning ruhini shod etish maqsadida yashirincha lahm kavlab Muqimiy jasadlarini Jabaliyning oyoq tomonlariga qo'ygan. Mavlaviy Jabaliy "Niyoziy" tahallusi bilan ijod qilganlar.

Sayyid Abdulloh Madoniy kokillik ota ziyoratgohi. Qo'qon shahar, Qalandarxona mahallasi Binokor ko'chasida joylashgan mazkur ziyoratgoh hozirda xalq tilida «Kokillik ota» deb ataladi. Madinalik sayyidlardan bo'lmish Sayyid Abdulloh Madoniy hijriy 704 (milodiy 1305) yilda dini Islomni mustahkamlash uchun Turkistonga safarbar etilgan kishilar qatori yurtimizga kelib, yurt kezib, nihoyat Andijonning Samjigon degan mavzeida o'rnashib qoladilar[2; 184-b.]. Qarigan paytlarida vatanni qumsab Madinaga boradilar. Biroq u yerdagi

teng-tushlari, tanish-bilishlari o'tib ketgan ekanlar. Shu tufayli u yerda tura olmay, Samjigonga - oilalari quchog'iga qaytadilar. Keyinchalik u kishining avlodlarini Xo'qand xonlari poytaxtga ko'chirib olib kelganlar. Bu avlodning so'ngi vakillaridan birlari Sayyid Akbar Madoniy "Kokilli ota" degan nom bilan mashhur bo'lganlar. Bunday nom olishlariga sabab:

1. O'zlari ham Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam)dan qolgan sunnat sifatida kokil qo'yib yurganlar.

2. Farzandsiz oilalarga kokil berganlar. Bunday oilalar Farzand ko'rsak, unga kokil qo'yib, shu joygabag'ishlaymiz deb niyat qilganlar. Farzand ko'rgach, kokil qo'yib, shu kishining xonaqohlariga bag'ishlaganlar. Bola biroz katta bo'lgach, ota-onasi bolasini bu yerga olib kelib, kokil to'yi qilib berganlar. Madoniy kokilni kesib olib, boshqa bir farzandsiz oila berganlar: Kokilli ota- Sayyid Akbar Madoniy hijriy 1307 (milodiy 1889) yilda vafot etganlar va o'zlarining hozirgi Qalandarxona mahallasi, Binokor ko'chasida (kasalxona orqasi) joylashgan xonaqohlariga dafn etilganlar. O'g'il farzand qolmagan. Ukishining faoliyatlarini shogirdlari davom ettirganlar. Maqbaralari hozir bor, xalq hashari yo'li bilan obod qilingan.

Hazrati Muhammad Abdulhakim Xalifa ziyoratgohi. Hazrat Muhammad Abdulhakim xalifa, xalq tilida Hakim xalifa deb ham atashadi, bu Zot hijriy 1230 (milodiy 1815) yilda Xo'qand yaqinidagi Mirzaxo'ja qishlog'ida ma'rifatli oilada tavallud topganlar. Otalari Mullo Bahouddin madrasa tahsilini ko'rgan ilmi kishi bo'lganlar. Maktabdorlik bilan oila tebratganlar. Turvoqlik yirik so'fiy Shohsalim Turvoqiy Mullo Bahouddinni oilasi bilan ko'chirib borib, hovli-joy bilanta'minlaydilar. Mullo Bahouddin u yerda muazzinlik va maktabdorlik qiladilar. Muhammad Hakim o'sha yerda savod chiqarib, dastlabki diniy ilmni otalaridan, tariqat ta'limini Shohsalim xalifadan oladilar [2; 38-b.]. Mullo Bahouddin xonadonida ikki o'g'il farzand: Muhammad Hakim va Abdulqosim tavallud topgan edi. Har ikkalari oldin Shohsalim xalifa xizmatlarida bo'ldilar. Xo'qandga Eshoni Majzub kelib murid tarbiya etayotganlarini eshitganlaridan so'ng aka-uka Shohsalim xalifadan ijizat olib Eshoni Majzub xizmatlariga boradilar. Bu paytda Eshon Majzub Qalandarxonadagi Musulmonquli qurib bergan xonaqohda murid tarbiyalar edilar. Ikki yosh solik jazbi o'tkir ustozga qattiq bog'lanib qolib, Majzub hazratlari Namanganga ko'chib ketganlarida birga ketib, xizmat va ta'limni o'sha yerda davom ettirdilar. Bir necha yil pirlarining xizmatlarida bo'lib, tasavvufning barcha bosqichlaridan o'tib, irshod olib, Xo'qandga qaytadilar. Bir necha yil Yalang'och ota guzarida xonaqohda o'tiradilar. Nihoyat, Sheralixonning inoyati bilan hozirgi manzil - Mirzo Edgor mahallasidan joy olib, xonaqoh quradilar. Mazkur xonaqohda Eshon Majzub an'analari davom ettirilib, zikri samo' ba'zan raqs bilan birgalikda ijro etilar edi. Yosh hukmdor Xudoyorxon bundan xabar topib, liboslarini, tashqi qiyofalarini o'zgartirib zikr tomosha qilgani keladigan bo'ldilar. Bir necha marta halqaga ham tushdilar. Hakim Xalifa hazratlari Xudoyorxonni karomat bilan tanib olib, mehmonxonaga olib kirib nasihat qiladilar:

- Xon hazratlari, tariqat ishiga, zikri-sam'oga qiziqqanlari juda bir yaxshi ixlosdir. Biroq hozirgi paytda bu ish hukm- dorga to'g'ri kelmaydi.

- Nima uchun? Ha, darvoqe, bizni qanday tanidilar? Mening qiyofamni o'zgartirgan mulozimlar: - Endi sizni Hokimoyim onamiz ham taniy olmaydilar, - deb edilar.

- Ona tanimasligi mumkin, biroq so'fiylardan pinhon narsa yo'q. To'g'ri kelmaslik boisini aytсам, avvalo, halqaga kirish uchun ishq paydo bo'lishi kerak. Qalbdan ishq paydo bo'lsa, Ibrohim Adhamga o'xshab, taxtdan voz kechishga to'g'ri keladi. Taxtdan voz kechish esa oson

ish emas, Ibrohim Adhamlar zamoni o'tib ketgan. Qolaversa, zikrda ishtirok etish xavfli. Illo, zikrda odamlar jazb holatida bo'ladi. Dushmanlaringiz bundan foydalanishi mumkin. Padari buzrukvoringizning amakivachchalari Olimxon rahmatlini ham zikr paytida pichoqlaganlar. Avvalo, Xudo saqlasin-ku, mabodo, dushmanlar zikrdan foydalanib sizga suiqasd qilsalar, bir ish chiqara olmagan taqdirlarida ham, xonaqohni jinoyatga sherik qilishlari hech gap emas.

Shundan so'ng Xudoyorxon zikrga qatnashmay qo'ydilar, ammo xonaqoh yoniga madrasa qurilishida yordamlarini ayamadilar. Madrasa 1849-1850 yillarda qurib bitirildi. Bu madrasa ham Eshon madrasalar jumlasiga kirib, diniy bilimlar qatorida tariqat ta'limi ham berilar edi. Madrasa va xonaqoh oshxonasi (langari)da har kuni ikkita katta qozon qaynab turar, ovqatlar darveshlar, qalandarlarga, mullavachchalarga, g'aribu g'urabo, etim-esirlarga tarqatilardi.

Mullo Bahouddin (alayhirrahma) har bir duolarida Allohga murojaat qilib, o'z avlodlariningkelajakda barkamol insonlar bo'lishlarini, o'g'il farzandlardan bo'lgan avlodlar ahli tariqat eshonlar, qiz farzandlardan bo'lgan avlodlar allomalar bo'lib etishishlarini tilar ekanlar. Duolari ijobat bo'lib, bu xonadondan ko'plab so'fiylar, allomalar etishib chiqdilar[2; 41-b.].

Hakim xalifa hazratlari ko'plab shogirdlarni xalifa va eshon darajasiga etkazganlar. Ulardan nomlari hujjatlarda saqlanib qolganlari quyidagilar:

Katta Kenagasdan Ziyoviddin to'ra Haziniy
Kichik Kenagasdan Eshon Abdujalil xalifa
So'x qasabasidan Eshon Jabborquli xalifa
Marg'ilondan Bobojon eshon (Choyfurush eshon)
Andijondan Eshon Sultonmurodbek xalifa
O'qchi qasabasidan Eshon Madamin xalifa
Koshg'ardan Eshon Abdulqosim xalifa
Xo'janddan Porsoxon eshon
Xo'janddan Sodirxon hofiz
Toshkanddan Azizlar eshon
Toshkanddan Mullo Yo'lchi xalifa
Xo'qanddan Eshon Abdurashid porso
Xo'qanddan Eshon Abulabbos porso
Xo'qanddan Xalifa Eshmuhammad (Pakanaxon eshon).
Xo'qanddan Usta Boltaboy xalifa
Xo'qanddan Eshon No'mon xalifa (Cho'tir eshon).

Bundan tashqari, haj safariga borganlarida Makkai mukarramada bir yil istiqomat qilib, u yerda ham bir qancha xalifalarni tarbiyalaganlar[2; 48-b.]. Muhammad Hakim xalifa (Eshonbobo) hazratlari hijriy 1314 (milodiy 1896) yilda vafot etganlar. Katta izdihom bilan dafn etilganlar. Andijonlik shogirdlari Sultonmurodbek xalifa qabr ustiga maqbara quradilar. Eshon Haziniy ustozlari va pirlari vafotiga bag'ishlab katta marsiya yozganlar. Shundan bir parcha:

Kimga dod aylay, jahondin ketdilar olijanob, Diydadin doim to'karmen aubruronlar xunob.

G'avsul A'zamdand buyon bundoq valiy kelgan emas, Murshidimdek hech kim oliymaqom bo'lgan emas.

Besavod omiy edim nafasidin topdim najot, Ro'zi mahshar kun uchun berdilar menga barot.

Xonaqohda ul kuni suhbat edi jazbu junun, Rahbarim irshod salla berdilar, bir malla to'n.

Men rizoi pir topganimda o'ttuzda edim, Men Haziniyga ijozat berdilar shayxul Hakim.

Maqbarada ikki qabr bo'lib, biri Hakim xalifa (alayhirrahma)niki, ikkinchisi ukalari Abulqosim xalifanikidir. Hazrat xalifadan to'rt nafar o'g'il tavallud topganlar:

1. Oshiq Maxdum. Bu nomni Majzub hazratlari qo'yib berganlar. Milliy ozodlik kurashi paytida bolsheviklar tomonidan otib shahid qilinganlar.

2. Abu Bakr maxdum. Xo'qandda vafot etganlar.

3. Muhammadxon mahzum. Qatag'on siyosati ta'qibi ostida Koshg'arga ketib qolganlar.

Keyinroq Hindistonga ko'chib, o'sha yerda vafot etganlar.

4. Zikriyoxon maxdum. Vafotlari Xo'qandda.

Abu Bakr maxdumdan Bakirxon maxdum tavallud topib, Madinaga ketib qolganlar. Muhammadxon maxdumdan Hafizxon maxdum dunyoga kelganlar. Ul zoti bobarakot ham ilmda, ham tariqatda bobolarining izlaridan bordilar. Bundan tashqari tabobatda ham mashhur bo'lib, sof tabiiy dorilar bilan ko'plab bemorlar dardiga davo topganlar. Hozirgi paytda xonaqohda (dastlabki xonaqoh buzilib ketgach, tashqi hovlilarini xonaqohga aylantirganlar) sajjodanishin bo'lib, chiroq yoqib o'tiribdilar. Hozirgi paytda to'qson yoshdan oshganlar. Shu tufayli xonaqoh ishlarini o'g'illari Zikriyoxon qoridan bo'lgan nabiralari Yahyoxon qori olib bormoqdalar. Hafizxon (Abdulhafizxon) maxdum hazratlari hozirgi paytda tasavvufning vodiydagi eng yirik, so'nggi namoyandalaridan birlari sifatida ardoqlidirlar[2; 51-b.].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ахмедов А. Фарғона водийсида диний анъаналар. — Тошкент: Фан, 2012 йил.
2. Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy, Xo'qandi latif manoqibi. Toshkent, "Movarounnahr" nashiryoti, 2018 yil.
3. B.Eraliyev, I.Ostonaqulov, N.Abdulhatov. O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari: Farg'ona viloyati. T.: "Turon Zamin Ziyo" nashiryoti, 2014 yil.
4. B.X.Qirg'izovning Farg'ona viloyatidagi ziyoratgohlarni o'rganishidagi shaxsiy etnografik kuzatuvlari.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-may

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.